

**TARIXIY ASARLANING JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI:
"YULDUZLI TUNLAR" ASARINING BOSH G'OYASI**

Tleumuratova Aziza

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi
«Mening eng katta ichki qiynovlarim, «Bobur» kinosini ko'rishni o'zim niyat qilardim. Ulug'bek, Beruniy, qilsakbo'ladimi?! Millatimizning orzusi bo'lsa kerak bu kinolar. Negaal-Buxoriy to'g'risida kino yo'q? At-Termiziy bobomiz?! Termiziylar sulolasi deganda qanchadan-qancha gaplar bor. Bu ham bir yo'nalishmi yo'qmi?! Moturidiy haqida kino ko'rsatish, u ham bi r yo'nalish. Islom sivilizatsiya, deganda nimani ko'rsatamiz biz?!

Shavkat Mirziyoyev

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarixiy asarlarning jamiyatimiz taraqqiyotida tutgan o'rni va Pirmqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romani bosh g'oyasi, undagi obrazlarning badiiy talqini yoritilgan.

Kalit so'lar. Tarixiy mavzu, tarixiy shaxs, obraz, ssenariy, syujet, kolorit

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish ,jahon miqiyosidagi ilg'or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san'at muassasalida barpo etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda.

Yoshlarni san'at maskanlariga, xususan, teatr va muzeylar, konsert tomoshalariga muntazam jalb etish, o'zbek va jahon madaniyatining eng sara na'munalardan bahramand etish orqali ularning ma'naviy- axloqiy, estetik didi va madaniy darajasini yuksatirish."Seni kuylaymiz,zamondosh!", " Debyut" kabi teatr san'atida ko'rik-festivallari samaradorligini oshirish orqali buyuk siymolar,zamonamiz qaxramonlari obrazi,bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarini aks ettirgan, badiiy yuksak sahna asarlarini yaratish.

Tarixni o'rganish isbot talab qilmaydigan zarurat. Ammo ayrim xalqlarda milliy o'zlik va boy tarixni o'rganish yanada muhim masalalardan sanaladi. Bu yo'nalishda tadqiqotchilar, tarixchi olimlar, ijodkorlar kasbiy yo'naltirilgan holda faoliyat olib borishadi. Bir jamiyatning tarixi uning kelajakda dadil ildamlashi va yangi tarixni yaratishda madad olishi uchun kerak. Xatolardan saboqlar, yutuqlardan iftixor, ulug'lar hayotidan dars olish uchun ham tarix haqida bilimlar shakllantirilishi kerak. Asl tarixni yoritish uchun esa bor imkoniyatlar ishga solinadi.

"Ma'lumki, yosh avlodt arbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqattan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda", — dedi prezident Shavkat Mirziyoyev.¹

¹ : [Mirziyoyev-yoshlarga-Hukumat-eshiklarini-ochdi.html](#)

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach biz yoshlar uchun berilgan imkoniyatlar kengayib borayotganini aytib o'tish joiz. Shu o'rinda bizning naqadar tarixan boy va ilmiy-ma'rifiy jihatdan chuqur ekanligini ham eslatish muhim.

Har bir millat, xalq o'z tarixi va madaniyati bilan bir-biridan farq qilgan holda ajralib turadi. O'zining chuqur tarixiy merosi va boyliklari, urf-odatlarini saqlab qola olgan millat o'zligini anglagan xalq dunyo miqyosida o'zining alohida o'rin egallashi shubhasizdir.

Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan kam topiladi².

Ma'rifatparvar yozuvchi va teatr arbobi Mahmudxo'ja Behbudiy "Teatr o'yinbozlik emas! Masxarabozlik ham emas! Teatr bamisoli oynavand bir uykim, kirgan har bir kimsa o'z husnu qabihini ko'ra olur", deb yozgan edi. Darhaqiqat, teatr jamiyatning ma'naviy va madaniy hayotini aks ettiradigan o'ziga xos ko'zgudir. Mamlakatimiz teatrlari sahnasida ham har kuni tomoshabinlar va aktyorlar o'rtasida dolzarb mavzularda o'ziga xos muloqot bo'lib o'tadi. Ayniqsa, istiqloq yillarida qaratilayotgan alohida e'tibor samarasida teatrlarimiz yana tomoshabinlar bilan to'lib, haqiqiy madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat o'chog'iga aylanib bormoqda.

"Yulduzli tunlar"- o'zbek yozuvchisi Pirimqul Qodirov tomonidan yozilgan tarixiy roman. Asarda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti haqida so'z yuritiladi. Yozuvchi bu roman ustida o'n yil davomida ish olib borgan. "Yulduzli tunlar" ga "Boburnoma" hamda "Humoyunnoma" asarlari asos bo'lgan. Asarda shoir va shoh Bobur hayoti va ijodini tasvirlash muhim o'rin tutadi. Bobur tariximizning o'ta murakkab, chigal davrida yashagan tarixiy shaxs ham iste'dodli olim, insonparvar, taraqqiyparvar, ma'rifatparvar shaxs, haqgo'y shoir, "Boburnoma" dek jahonga mashhur tengsiz asar muallifi hisoblanadi.

Sho'ro zamonida o'zbek adabiyotidagi buyuk tarixiy siymolarga bag'ishlangan birorta asarning qismati oson kechmadi. Bunga "Abdulfayzhon", "Muqanna", "Navoiy", "Mirzo Ulug'bek", "Ko'hna Dunyo" singari asarlar misoldir. "Yulduzli tunlar" ham bundan mustasno emas.

Sho'rolar bunday asarlar xalqning ko'zini ochadi, isyonkor ruhni chorlaydi, ulug' ota-bobolar orqali buyuk o'tmishga, ma'naviy qudrat an'analarga intilish va sadoqatni kuchaytiradi, deb qo'rqdilar va yanglishmadilar. Bunday asalar mohiyat e'tibori bilan o'zlikni anglashga chorlashi, xalqning zimdan mustaqillikka tayyorlashi mumkun.

"Yulduzli tunalar" ham aslida shunday asar edi. Shu bois, raman bir necha yil davomida ne-ne azob-uqubatlar bilan yozilganiga qaramay, olti-yetti yil chop

² I.A.Karimov-Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch-Toshkent "Ma'naviyat"2010

etilmay yotdi. Nihoyat bosilib chiqdi (1978), hatto O'zbekiston davlat mukofatiga sazovar bo'ldi (1981). Lekin ko'p o'tmay asar va yozuvchi boshiga ko'p og'ir kunlar tushdi. Roman matbuotda feodalizimni targ'ib qiluvchi asar sifatida qoralandi. Muallifga millatchi, burjua yozuvchisi deb tuhmat qilindi. Yangi zamon, mustaqillik adibni ham, romanni ham xalqqa qaytardi.

“Yulduzli tunlar” shoh, sarkarda, shoir-benazir inson Zahriddin Muhammad Boburning yorqin suymosi mahorat bilan aks ettirilgan to'laqonli va sermiqiyos badiiy asardir.

Bu asargacha yozuvchi, asosan, o'z zamondoshlari va zamonasi muammolariga bag'ishlangan asarlar yozdi. “Yulduzli tunlar”da esa, adib ilk bor tarixiy mavzuga murojat etdi, buyuk tarixiy shaxs obrazini yaratishga kirishdi. Gap mavzu u qahramonning tarixiyligida emas. Asosiysi, jaxon tarixi, xususan, O'rta Osiyo va Hindiston tarixida o'chmas iz qoldirgan, markazlashgan davlat tuzib, ko'pdan ko'p xalqlarni qirg'inbarot urushlardan saqlab qolgan, murakkab qismatli podshoh, jangu-jadallarda mahorat va jasorat ko'rsatgan sarkarda, she'rlaridagi har bir satrda o'z ichki dunyosi, dono porloq qiyofasi porlab turgan buyuk shoir, har bir so'zidan tarix nafasi keluvchi “Boburnoma” muallifi hamda dilbar tabiat siymosi bu darajada haoniy, teran gavdalantirgan roman shu vaqtgacha o'zbek adabiyotida ham yaratilmagan edi.

Jahon tarixida badiiy adabiyotida Bobur haqida to'g'ri fikirlardan tashqari bir-biriga zid, ba'zan yangilish, xato, noxolis qarashlar yo'q emas edi. Boburning haqqoniy qiyofasini yaratish, badiiy haqiqat imtiyozlari bilan moziy adolatini tiklash tarix talabi, zamon ehtiyoji va yozuvchining muqaddas burchi edi.

Shu ma'noda “Yulduzli tunlar” yozuvchi burchini namayon etgan yulduzli onlardir. Roman yuqorida e'tirof etilgan jihatlari va buyuk bir tarixiy siymoninigi qaytadan kashf etilishi bilan o'zbek adabiyotida mustahkam o'rin egalladi.

Adabiyotimizda buyuk shoh va shoir hayotining ayrim bosqichlariga bag'ishlangan Oybekning “Bobur”, E.Vohidovning “Kelajakka maktub”, B.Boyqobilovning “Kun va tun”, X.Sultonning “Boburnoma” singari turli janirdagi asarlari mavjud. “Yulduzli tunlar”da esa Boburning deyarli butun ongli hayoti yaxlit yaratilgan. Adib roman janirining yuksak talablariga amal qilish bilangina kifoyalanmay, janr tabiatini yanada boyitishga munosib hissa qo'shadi.

Roman Bobur siymosining tarixiy haqiqatga mos badiiy jihatdan jozibali tasvirlashi bilan e'tiborli. Humoyun og'ir betob bo'lib yotganida Bobur farzandiga shunday deydi: Sening betoqatligingga men toqat keltiray! Sening shu og'ir dardingni xudo sendan olib menga bersin...

“Bobur umumiy jimlikda Humoyunning boshidan uch martda aylanadi-yu: - E, parvardigor!-deb iltijo qiladi. Menki, Boburmen, agar jon brish mumkun bo'lsa, umr-u jonimni Humoyunga quron qildim! Azroyil mening jonimni olsin-u, xudo Humoyunga shifo bersin!”.

Manbalar bu voqea haqiqatdan ham tarixda ro'y berganini tasdiqlaydi. Humoyun ko'p o'tmay tuzaladi. Bobur qazosi shu voqealarga to'g'ri keladi. Roman ham ko'p o'tmay shu tasvirdan so'ng yakun topadi.

Yozuvchi bu singari tarixiy faktlarni e'tirof etib bilangina cheklanmaydi, albatta. Taxayyulni erkin qo'yib, ularga badiiylikning jonli suvini ichiradi. Butun asar davomida qahramonlarni, ularning o'y- kechinmalarini, harakat qilayotgan shart – sharoitlarini, muhitini, tabiatini, hatto olinayotgan nafaslar haroratini, ayni lahzalarda pardalardan ichkariga yoyilayotgan nur tarovati va hakozaalarni shu qadar mahorat bilan badiiy go'zal tasvirlaydiki, kitobxon asar o'qiyotganini unutib, shu muhitda yashayotgandek his etadi o'zini.

Bobur Hindistonda saltanatni boshqarganda podsho bo'lishning shon-shovkati bilan bir qatorda, adadsiz pushaymonlarni, iztiroblarni, xatolig'-u, yuzi qarolig'larni boshidan kechirgan. Vatan sog'inchi bilan o'rtangan. Bu yo'nalishda uning ajoyib, dilbar she'rlari ham bor. Yozuvchi qahramonni tabiyatga doir ana shunday tarixiy gavhar dalillarni saralab, badiiy yaxlitlik bilan nurlantiradi. Natijada, yozuvchining mahoratidan nurlangan harorat badiiy jozibaga aylanadi va butun asar hujayralariga iliqlik baxsh etadi.

Shu ma'noda romanda Bobur ruhi, ichki dunyosi, xayollari, orzu-armonlarning yuksak mahorat bilan tasvirlanganini ta'kidlash zarur. Onasi Qutlug' Nigorxonim bilan Boburning nafas olishdayoq bir-birlarini tushunishlari, inining Xonzodabegimni nainki so'z, balki yurak bilan anglay bilishi, shoirning havo bilan emas ilhom bilan nafas olayotgan betakror sohir holatlardagi hos-hayajonlarni tasviri Pirumqul Qodirovning ruhiyat manzaralarini ko'rsatishdagi ustunligida dalolat beradi. Yozuvchi Boburni ko'p hollarda ichki kolliziya, ichki dramatism, azobli, iztirobli vaziyatlarda ko'rsatadi. Qahramon o'z-o'zini ichida tahlil etadi, qiynayotgan savollarga shu yo'sinda javob izlaydi va topadi. O'zga qahramonlar bilan ba'zan so'z orqali emas, ichdan, vujud til orqali muloqatda bo'ladi. Bu esa qahramon ruhiyatini teran yoritish imkonini beradi.

Mana, Boburning podshoh, sarkarda, shoir muarrix sifatidagi buyuk fazilatlaridan tashqari oddiy bir inson sifatidagi ko'rinishi. Zaharlangan Bobur ruhiyati shunday chiziladi: "Boshida o'tgan o'lim daxshatini hamon hayolidan nari ketmasdi. Shu qil uzilsa, o'lim deb ataladigan zulmat qariga qulab tushishni ikki kun davomida muttasil his qilish unda yashash istagini behad kuchaytirib yuborgan edi. Hayotning bir lahzasi, bir uchquni dunyoning barcha boyliklari-yu, toj-u taxtlaridan ham aziz ekanligi unga endi astoyidil sezildi".

Qahramon ruhiyatini teran, jonli, samimiy ochish o'z- o'zidan bo'ladigan ish emas. Buning uchun yozuvchi shunday his- tuyg'ularni o'z qalbidan o'tkiza olishi kerak. Pirumqul Qodirov o'zi aytganidek, adib "tarixiy shaxslarning ichki dunyosiga o'z ichki dunyosi orqali yo'l topadi". Mustaqillik davriga kelib, "Yulduzli tunlar"dek tarixiy asarning qadr- qimmatini, ahamiyati yanada oshdi. Roman Vatan, millat, ulug' ota- bobolarimizga mehr-muhabbatni yanada e'zozlashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Раҳматуллаева Д.Н. Замоновий саҳна санъати ва комил инсонни тарбиялаш муаммоси // Шахс маънавиятини шакллантиришда санъат ва

- маданиятнинг роли // Республикаилмий-назарийваамалий конференция материаллари.- Т.: «Навруз».- 2015 й., 109-112 бб.
2. Mirzamuhammedova.M. O'zbek animatsiyasi.-Т.: «Mumtoz so'z», 2014.-96 b
 3. Х.Абул-Касимова, Д.Тешабаев, М.Мирзамухамедова.
 4. Кино Узбекистана.г.Ташкент.:Фан,1991.-148с.
 5. М.Мирзамухамедова. Детское кино Узбекистана.-Т.:Изд.лит.1982. – 96 с.
 6. Кинематография Узбекской ССР – Кино: Энциклопедический
 7. словарь/Гл. ред. С. И. Юткевич;Редкол.: Ю. С. Афанасьев, В. Е. Баскаков,И.

Internet ma'lumotlari

8. www.teatr.uz
9. www.ziyo.uz
10. ma'naviyat.uz
11. YouTube